# SHAXSGA YO'NALTIRILGAN AXBOROT: PSIXOLOGIK, DINIY VA MADANIY TAHDIDLAR.

***Andijon Davlat Universiteti***
***Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi***
***Xolmatov Ibratbek Ilyosbek o`g`li***
***Abdurazzaqova Feruzaxon Kanalovna***
***Umumiy pedagogika kafedrasi o`qituvchisi.***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola shaxsga yo'naltirilgan axborotning psixologik, diniy va madaniy tahdidlarini tahlil qiladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi shaxslar va jamoalarga nisbatan turli tahdidlarni kuchaytirdi. Maqolada avvalo psixologik tahdidlar ko'rib chiqiladi, bu tahdidlar ko'pincha ma'lumotlarning noto'g'ri talqin qilinishi, manipulyatsiya va dezinformatsiya orqali namoyon bo'ladi. Keyingi qismda diniy tahdidlar muhokama qilinadi, bu tahdidlar turli diniy guruhlar o'rtasidagi nizolar va ekstremistik g'oyalarni yoyish orqali amalga oshirilishi mumkin. So'nggi qismda madaniy tahdidlar yoritiladi, bu tahdidlar esa madaniy assimilyatsiya, globalizatsiya va madaniy identifikatsiya yo'qolishi bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Maqola shaxsga yo'naltirilgan axborotning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun tavsiyalar ham beradi. Shu jumladan, axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va madaniy muloqotni kuchaytirish bo'yicha strategiyalar tavsiya etiladi. Bu tahlil shaxsiy va jamoaviy darajadagi axborot tahdidlariga qarshi kurashish uchun foydali ilmiy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** etnik muammolar, globallashuv, falsifikatsiya metodi, mafkuraviy kurash, ijtimoiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, ichki xavfsizlik, tashqi xavfsizlik, milliy tahdidlar

**Аннотация:** В данной статье анализируются психологические, религиозные и культурные угрозы персонализированной информации. Развитие информационных технологий и распространение средств массовой информации увеличили различные угрозы для отдельных лиц и сообществ. В статье впервые рассматриваются психологические угрозы, которые часто проявляются через неверное толкование информации, манипуляции и дезинформацию. В следующем разделе рассматриваются религиозные угрозы, которые могут быть вызваны конфликтами между различными религиозными группами и распространением экстремистских идей. Последняя часть посвящена культурным угрозам, которые включают вопросы, связанные с культурной ассимиляцией, глобализацией и утратой культурной идентичности. Также в статье даны рекомендации по снижению негативного воздействия персонализированной информации. Среди них рекомендуются стратегии повышения информационной грамотности, развития критического мышления и укрепления культурной коммуникации. Данный анализ служит полезным научно-практическим ресурсом для борьбы с информационными угрозами на индивидуальном и коллективном уровне.

**Ключевые слова:** этнические проблемы, глобализация, метод фальсификации, идеологическая борьба, социальная безопасность, национальная безопасность, внутренняя безопасность, внешняя безопасность, национальные угрозы.

**Abstract:** This article analyzes the psychological, religious and cultural threats of personalized information. The development of information technology and the spread of mass media have increased various threats to individuals and communities. The article first examines psychological threats, which often manifest through misinterpretation of information, manipulation, and disinformation. The next section discusses religious threats, which can be caused by conflicts between different religious groups and the spread of extremist ideas. The last part covers cultural threats, which include issues related to cultural assimilation, globalization, and loss of cultural identity. The article also provides recommendations for reducing the negative effects of personalized information. Among them, strategies for increasing information literacy, developing critical thinking, and strengthening cultural communication are recommended. This analysis serves as a useful scientific and practical resource for combating information threats at the individual and collective level.

**Key words:** ethnic problems, globalization, falsification method, ideological struggle, social security, national security, internal security, external security, national threats

Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik, biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya'ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu orinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir. Ijtimoiy xavfsizlik jamiyatda mavjud bolgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni taminlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bogliq vazifalarini oz ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, yani, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr korishlari, bir xududdan ikkinchisiga kochib otishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi.

Milliy xavfsizlik bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bolgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yonaltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Tashqi xavfsizlik ikki bosqichni nazarda tutadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda avvalo ekologik, harbiy, radiatsion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-ahloqiy (ekspansiyalar) turdagi xavflarni oldini olish nazarda tutiladi.

Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstuitutsion xuquq va kafolatlariga aloqador bolgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yol qoymaslikka bogliq bolgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularnii vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi boyicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat azolarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy xududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning oziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo boldi.

Axborot xavfsizligi aslida jamiyatning obektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bolishi uchun yaratilayotgan shartsharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil

axborot vositalari orqali aholiga etib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak.. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bolayotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bolavermaydi va jamiyat oz azolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur boladi.

Axborot xavfsizligining vazifalari:

shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bolgan huquqini taminlash;

xolis axborotlar makonini taminlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);

informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yoli bilan ushbu yonalishda sodir bolishi mumkin bolgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali roy beradigan xavflarni, shu orqali noqonuniy mablaglarning bir manbadan ikkinchisiga oqim ketishiga yol qoymaslik;

shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish;

imidjni shakllantirish, turli bohton, mish-mishlar va noorin xabarl arga qarshi kurashish.

Axborot xurujlari turlicha bolgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini korish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, xududiy, tashkilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Yani, davlat miqyosida axborot xavfsizligini taminlashga aloqador bolgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish togrisida ketsa, ikkinchi xolatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bohton, toxmat, mish-mishlar tarqatishga bogliq bolgan salbiy xolatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala xolat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifatida qaraladi.

Axborot xurujlari  bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yonaltirilgan tasir bolib, uning asl maqsadi osha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning garazli niyatlaridan kelib chiqadi.

Tezkor tapaqqiyot odatiy tamoyillar katori vaqt va makonmutanosibligiga xam oz tasirini korsatmokda. Barcha faoliyatjarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalariningshakllanishi insonlar va mintaqalarning yakkalikdan yaxlitlikka yuzburishiga olib keldi. Bu esa oz navbatida "odamlarni malum birmanfaatlarga xizmat kiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan,turli mano-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy tasiri ostidayashashga majbur qilmoqda.

Bugungi kunda axborot juda keng tarqalgan bolib, har taraflama rangbarang manolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin. XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng chokkisiga etgan asr xisoblanadi. Shuning uchun xam XXI asrni axborot asri deb ta'kidlashmokda.

**Xulosa:**. Shaxsga yo'naltirilgan axborotning psixologik, diniy va madaniy tahdidlarini o'rganish muhim va dolzarb mavzudir. Psixologik tahdidlar asosan ma'lumotlarning noto'g'ri talqin qilinishi va manipulyatsiya orqali shaxsiy ong va ruhiyatga zarar yetkazishi mumkin. Diniy tahdidlar turli guruhlar o'rtasidagi nizolar va ekstremistik g'oyalar tarqalishi orqali jamiyatda notinchlikka sabab bo'ladi. Madaniy

tahdidlar esa madaniy assimilyatsiya va identifikatsiya yo'qolishi kabi holatlar bilan bog'liq bo'lib, bu jahon madaniyatlarining xilma-xilligini xavf ostiga qo'yadi. Ushbu tahdidlar zamonaviy axborot texnologiyalari va globalizatsiya sharoitida yanada kuchaymoqda. Shaxsiy va jamoaviy darajada bu tahdidlarni kamaytirish uchun axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va madaniy muloqotni kuchaytirish zarur. Maqolada berilgan tavsiyalar bu muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ular orqali shaxslar va jamiyatlar axborot tahdidlariga nisbatan barqarorlik va chidamlilikni oshirishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -T.:Ўзбекистон, 2019.

2. Y, Mamatova. S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.б

3. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan ҳимоя.Ёрдамчи o'quv qo'llanma. Movarounnaxr, 2016.-672 b

3. A.V. Fedorov. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost. Uchebnoye posobiye. M. 2018 g

4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jixatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - Extremum-press, 2017-142.б

5. Arastu. Axloqi Kabir. Poetika. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004.

6. Imomnazarov M. Saidov U Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy asoslari. T:. "Akademiua". 2005